
Farg'onada "Ezgulik manzili" xayriya aktsiyasi bo'lib o'tmoqda

Bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan Farg'ona hamda Qo'qon shaharlarida tashkil etilgan mazkur tadbir 14 avgustdan 20 avgustga qadar davom etishi belgilangan.

Maqsad viloyatda yashovchi ehtiyojmand, kam ta'minlangan, sharoiti og'ir oilalardagi bemor bolalarga konsultativ va ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish, shuningdek, jamg'armaning tibbiy dasturlariga asosan og'ir tashhisli bemor bolalarni davolash, bepul dori-darmon vositalari bilan ta'minlash, ularning salomatligini muntazam tiklash, jarrohlik yo'li bilan davolanishga muhtoj bo'lgan bemor bolalarda murakkab operatsiya amaliyotlarini o'tkazishdan iborat.

2022-08-18 18:14:54